



INNOVATIVE WORLD
Ilmiy tadqiqotlar markazi

YANGI RENESSANS

ILMIY JURNALI

2026/5



+998335668868



www.innoworld.net

Google Scholar



zenodo





2026

YANGI RENESSANS

ILMIY JURNALI

3-JILD 5-SON



YANGI RENESSANS

ILMIY JURNALI
TO'PLAMI

3 - JILD, 5 - SON
2026



www.innoworld.net

O'ZBEKISTON-2026

OKO-TEX STANDART 100 standarti talablarini ta'minlash asosida sifat menejment tizimlarini shakllantirish

Andijon davlat texnika instituti

MSvaSB mutaxassisligi M35-22gr magistranti :

X.M.Karimov.

Ilmiy raxbar : **Sh.A. Sulaymanov**

Annotatsiya. Mazkur ishda pilla xomashyosini qayta ishlash korxonalarida sifat menejmenti tizimini (SMT) shakllantirish, joriy etish va takomillashtirish masalalari tadqiq etilgan. Tadqiqotda ISO 9001 xalqaro standarti tamoyillari hamda mahsulotning ekologik xavfsizligini ta'minlovchi Oeko-Tex Standard 100 talablarining o'zaro integratsiyasi pilla sanoatining raqobatbardoshligini oshirishdagi o'zni yoritilgan. Shuningdek, ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirishda PDCA (Plan-Do-Check-Act) sikli va jarayonli yondashuvning ahamiyati ilmiy asoslab berilgan. Ishning amaliy ahamiyati pilla qayta ishlash korxonalarida mahsulot sifatini barqarorlashtirish va xalqaro bozor talablariga moslashtirish mexanizmlarini ishlab chiqish bilan belgilanadi.


Kalit so'zlar. Sifat menejmenti tizimi (SMT), ISO 9001, pilla xomashyosi, ipak sanoati, Oeko-Tex Standard 100, ekologik xavfsizlik, jarayonli yondashuv, PDCA sikli, raqobatbardoshlik, sifat nazorati, doimiy takomillashtirish.

Sifat menejmenti tizimi (SMT) yuqori sifatli mahsulot va xizmatlarni izchil yetkazib berishni ta'minlashga qaratilgan keng qamrovli boshqaruv tizimi hisoblanadi[1]. U jarayonlar, protseduralar va hujjatlashtirish kabi turli jihatlarni qamrab olgan sifat kafolati va sifat nazoratiga jarayonli yondashuvni o'z ichiga oladi. SMT korxonada faoliyatining barcha bosqichlarida sifatni rejalashtirish, ta'minlash, nazorat qilish va doimiy takomillashtirishni tizimli ravishda amalga oshirishga imkon beradi. Shu sababli sifat menejmenti tizimini joriy etish korxonada faoliyati natijalarini yaxshilashga yordam beradigan va barqaror rivojlanishga yo'naltirilgan tashabbuslar uchun mustahkam asos bo'lib xizmat qiluvchi strategik qaror hisoblanadi.

Pilla xomashyosini qayta ishlash korxonalarida SMTni qo'llash bir nechta muhim omillar bilan izohlanadi. Birinchidan, bu iste'molchilar talablarini to'liq qondirishga va ularning mahsulot sifatidan qoniqish darajasini oshirishga yordam beradi. Ikkinchidan, ishlab chiqarish jarayonlarini tartibga solish orqali korxonaning umumiy samaradorligi va natijadorligi oshadi. Uchinchidan, yaxshi joriy etilgan SMT korxonaning bozordagi obro'sini mustahkamlaydi va raqobatbardoshligini sezilarli darajada oshiradi. Umuman olganda, pilla xomashyosini qayta ishlash korxonalarida uchun SMTni joriy etish yuqori sifatli mahsulot ishlab chiqarishni ta'minlash va xalqaro bozorda raqobatbardosh bo'lishning asosiy sharti hisoblanadi.

Bugungi kunda dunyoning barcha mintaqalarida Pillakashlik va ipak sanoati jadal rivojlanib bormoqda hamda ushbu soha yangi ish o'rinlari yaratish va iqtisodiy o'sishga sezilarli hissa qo'shmoqda. Biroq, pilla xomashyosini qayta

ishlash jarayonining murakkabligi, texnologik bosqichlarning ko'pligi hamda xomashyo sifatining o'zgaruvchanligi sifatni boshqarishda turli muammolarni keltirib chiqaradi. Shu sababli bugungi kunda Pillakashlik va ipak sanoati korxonalarida sifat menejment tizimini joriy etish[2] va uni doimiy takomillashtirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.



2.1 – rasm. Pilla xomashyosini qayta ishlashda sifat menejment tizimi va Oeko-Tex Standard 100 talablari integratsiyasi qilish omili

Sifat menejment tizimini joriy etishning yana bir muhim sababi mahsulot sifati va mijozlar ehtiyojini qondirishning barqaror ta'minlanishidir. Sanoatning tez sur'atlarda rivojlanishi va yuqori raqobat muhiti korxonalaridan xalqaro standartlarga mos mahsulot ishlab chiqarishni talab etadi. Shu nuqtai nazardan, Oeko-Tex Standard 100 talablari alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu standart Pillakashlik va ipak mahsulotlarida formaldegid, og'ir metallar, pestitsidlar hamda boshqa zararli kimyoviy moddalarning mavjudligini qat'iy nazorat qilishni talab etadi.

Sifat menejment tizimi tamoyillariga amal qilgan holda pilla xomashyosini qayta ishlash korxonalarida nafaqat nuqsonlar va ishlab chiqarish xatolarini kamaytirishi, balki ishlab chiqarish samaradorligini oshirishi, xarajatlarni minimallashtirishi hamda bozorda raqobat ustunligiga ega bo'lishi mumkin. Shu bilan birga, Oeko-Tex Standard 100 talablarini SMT tarkibiga integratsiya qilish mahsulotning ekologik xavfsizligini ta'minlashga xizmat qiladi va xalqaro bozorga chiqish imkoniyatlarini kengaytiradi.



Bugungi global pillakashlik sanoatida mahsulot sifatiga bo'lgan talablarning ortishi tolalar, iplar va matolarni qayta ishlashda yangi texnologik yondashuvlarni joriy etishni talab etadi. Bu esa sifat menejment tizimining ahamiyatini yanada oshiradi. SMT korxonalarida ish samaradorligini oshirish, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish va mijozlar ehtiyojini to'liq qondirishga xizmat qiladi[3].

Pillakashlik va pilla xomashyosini qayta ishlash korxonalarida SMTning eng muhim jihatlaridan biri aniq va o'lchanadigan sifat maqsadlarini belgilashdir. Ushbu maqsadlar barcha xodimlar uchun yo'nalish bo'lib xizmat qiladi va korxonaning umumiy strategik maqsadlariga mos ravishda sifat standartlarini shakllantiradi. Shuningdek, SMT doimiy monitoring va baholash mexanizmlarini o'z ichiga olishi lozim bo'lib, bu jarayon asosiy ko'rsatkichlar (KPI) va statistik tahlil vositalari orqali amalga oshiriladi.

SMTning yana bir muhim tamoyili doimiy takomillashtirish hisoblanadi. Bu korxonada ichidagi mahsulotlar, ishlab chiqarish jarayonlari va boshqaruv tizimlarini muntazam ravishda yaxshilashga qaratilgan uzluksiz faoliyatdir. Doimiy takomillashtirish "har doim yaxshilanish imkoniyati mavjud" degan yondashuvga asoslanadi. Pilla xomashyosini qayta ishlashda Oeko-Tex Standard 100 talablarini joriy etish orqali sifat menejment tizimini yanada takomillashtirish, ekologik xavfsizlikni oshirish va xalqaro standartlarga moslikni ta'minlash mumkin.

SMTning izchil ta'minlashi, korxonalariga xalqaro sifat standartlariga mos mahsulotlar ishlab chiqarish va xalqaro bozorlarga chiqish imkoniyatini yaratadi. Bunday sertifikatlar bozorning yuqori sifatli va xavfsiz mahsulotlarga bo'lgan talabiga javob beradi va ularni amalga oshirish orqali korxonalar global bozorga kirish imkoniyatiga ega bo'ladi[4]. SMT tizimi, ishlab chiqarish jarayonlarini standartlashtirish va izchil nazorat qilish orqali ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi. Bu esa nuqsonli mahsulotlar sonini kamaytiradi, ishlab chiqarish xarajatlarini optimallashtiradi va resurslarni samarali ishlatish imkonini beradi.


SMTda iste'molchi talablarini qondirish uchun korxonada doimiy monitoring va tahlil mexanizmi yo'lga qo'yilishi zarur. Bunda mijozlar shikoyatlari, takliflari, mahsulotga bo'lgan talab darajasi, qaytarilgan mahsulotlar soni, nomuvofiqliklar sabablari va bozor talablari muntazam o'rganiladi. Olingan ma'lumotlar asosida ishlab chiqarish jarayonlariga tuzatishlar kiritiladi, mahsulot sifati yaxshilanadi va boshqaruv qarorlari takomillashtiriladi.


Shuningdek, SMT samaradorligi rahbariyatning faol ishtiroki, xodimlarning jarayonga jalb etilishi, dalillarga asoslangan qaror qabul qilish, jarayonli yondashuv va doimiy takomillashtirish kabi tamoyillar bilan chambarchas bog'liq. Rahbariyat sifat siyosatini belgilaydi, zarur resurslarni ajratadi va xodimlar o'rtasida sifat madaniyatini shakllantiradi. Xodimlarning ishtiroki esa har bir ishchi va mutaxassisning o'z vazifasiga mas'uliyat bilan yondashishini ta'minlaydi.





Jarayonli yondashuv[5] sifat menejment tizimida alohida ahamiyatga ega. Chunki har bir ishlab chiqarish bosqichi keyingi bosqich natijasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Masalan, pilla xomashyosini noto'g'ri qabul qilish yoki saralash keyingi qayta ishlash jarayonida mahsulot sifatiga salbiy ta'sir qilishi mumkin. Shu sababli SMTda har bir jarayonning kirish va chiqish ko'rsatkichlari, mas'ul shaxslari, nazorat mezonlari va baholash usullari aniq belgilanadi.





2.3 – rasm. Pillakashlik sanoati korxonalarida sifat menejment tizimini shakillantirish va takomillashtirish bosqichlari

Korxonalarda ISO 9001:2015 xalqaro standarti talablariga asoslangan sifat menejmenti tizimini samarali boshqarish uchun PDCA (Plan-Do-Check-Act) tsikli asosida kompleks yondashuv mexanizmi ishlab chiqilishi muhim hisoblanadi. Bu mexanizm, PDCA tsiklining barcha bosqichlarini izchil ravishda amalga oshirish orqali, sifatni doimiy yaxshilashga va mijozlar talablarini qondirishga qaratilgan. Quyida ushbu mexanizmning har bir bosqichi jadval asosida izohlangan [7 b].

PDCA sikli Pillakashlik korxonalarida ishlab chiqarish jarayonlarini boshqarish va takomillashtirish uchun samarali vosita hisoblanadi.

Ushbu sikl sifatni oshirish, jarayonlarni optimallashtirish va mijoz talablarini qondirishga yo'naltirilgan.

Olingan tahlillar natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

Strategik zaruriyat: Pilla qayta ishlash korxonalarida SMTni joriy etish shunchaki hujjatlashtirish emas, balki korxonaning global bozorda o'rnini mustahkamlovchi strategik qarordir.

Integratsiyalashgan yondashuv: ISO 9001 standartini Oeko-Tex Standard 100 talablari bilan integratsiya qilish nafaqat texnik sifatni, balki ipak mahsulotlarining kimyoviy va ekologik xavfsizligini kafolatlaydi. Bu esa Yevropa va jahon bozorlariga chiqish uchun asosiy omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абдурахмонов А., Қодиров Т. Ипакчилик асослари. — Тошкент: Fan va texnologiya, 2017. — 248 б.
2. Эрматов Ш., Тўрахонов А. Пиллачилик ва ипакчилик технологияси. — Тошкент: Fan va texnologiya, 2018. — 276 б.
3. Хамраев А. Х. Пиллачилик ва тутчилик асослари. — Тошкент: Мехнат, 2019. — 264 б.
4. Назаров Қ., Жўраев С. Метрология, стандартлаштириш ва сертификатлаштириш. — Тошкент: Ўзбекистон, 2019. — 312 б.
5. Саидов А., Турсунов Б. Сифат менежменти тизимлари ва сертификатлаштириш асослари. — Тошкент: Iqtisodiyot, 2021. — 286 б.